

Energiya

Energiya va uning turlari

Energiya o'zgarishlari

Elektr nuri nima?

Biz nima uchun ko'ramiz?

Tovush nima?

Eshitish kimga kerak?

Elektr nuri va tovush



1. Energiya nima?



Qanday odamlar “serharakat” deb ataladi? Odamda energiya qaysi paytda ko'p, qaysi paytda kam bo'ladi?



“**Energiya**” so'zi bizga yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, tarjimasi “harakat” degan ma'noni anglatadi. Energiya – bu biror narsa yoki harakatni bajarish imkoniyati. Agar tanamiz biror ishni bajara olsa, demak, u energiyaga ega.

Elektr toki bizning uy jihozlarimizni energiya bilan ta'minlaydi. Avtomobillar uchun energiya benzindan olinsa, velosipedlar uchun esa o'zimiz energiya beramiz. Masalan, mashina harakatlanishi uchun dvigatel ishlashi kerak. Dvigatel ishlashi uchun esa u doimo energiya olishi kerak. Bu energiya qayerdan olinishi mumkin? Dvigatel bu energiyani silindrlardagi benzinning yonishidan oladi. Bu energiya avtomobil mexanizmlarini harakatga keltiradi va mashina harakatlanadi.



Har bir obyekt qanday ishni bajarayotganligini ko'rsating. U energiyani qayerdan oladi?

2. Asosiy energiya manbalari




Qanday energiya manbalarini bilasiz?

Tabiatda barcha jismlar energiyaga ega: Quyosh, yulduzlar, havo, suv, odamlar, hayvonlar, o'simliklar, foydali qazilmalar, atrofimizdagi narsalar.

Ba'zi jismlar boshqalarga qaraganda ko'proq energiyaga ega. Masalan, Quyoshda yashiringan energiya, Quyosh tizimidagi birion-bir sayyorada yashiringan energiyadan ancha ko'p.

Odamlar turli harakatlarni bajarish uchun atrofidagi tabiiy energiyadan foydalanishni o'rganishgan. Masalan, dastlab odamlar yuklarni o'zlari tashigan va bunga o'z energiyalarini sarflashgan. Keyinchalik ular yuklarni ot-aravalarda tashib, otlarning energiyasidan foydalanishgan. Vaqtlar o'tib, avtomobil ixtiro qilingach, yoqilg'idan olingan energiya transport uchun ko'proq yukni tashishga yetarli bo'lgan.

ASOSIY ENERGIYA MANBALARI



Odamlar asosan qanday energiya manbalaridan foydalanadilar?